

**AQLI ZAIF O'QUVCHILARGA MATEMATIKA O'QITISHDA KORREKSION-RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI**

**Abidova Nazokat Qutbiddinovna,**  
*Oligofrenopedagogika kafedrası dotsenti, PhD*

**Eshqulov Abduraxmon Maxmud o'g'li,**  
*O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada aqli zaif o'quvchilarga matematika o'qitish jarayonida korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda maxsus ta'lim sharoitida matematik tushunchalarni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari, o'qitish metodlari va interfaol yondashuvlar tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, korreksion texnologiyalar o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirish va bilimlarni mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** maxsus pedagogika, aqli zaif o'quvchilar, matematika ta'limi, korreksion texnologiyalar, kognitiv rivojlanish.

**Аннотация.** В статье рассматривается значение коррекционно-развивающих технологий в обучении математике учащихся с интеллектуальными нарушениями. Анализируются особенности формирования математических понятий в условиях специального образования, методы обучения и интерактивные подходы. Результаты показывают, что данные технологии способствуют развитию познавательной активности и повышению качества знаний.

**Ключевые слова:** специальная педагогика, умственно отсталые учащиеся, обучение математике, коррекционные технологии, когнитивное развитие.

**Abstract.** This article examines the importance of correctional and developmental technologies in teaching mathematics to students with intellectual disabilities. The study analyzes the specific features of forming mathematical concepts in special education, teaching methods, and interactive approaches. The results show that these technologies effectively enhance cognitive activity and improve learning outcomes.

**Keywords:** special pedagogy, intellectually disabled students, mathematics education, correctional technologies, cognitive development.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarni o'qitish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aqli zaif o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida ularning psixofiziologik rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, individual yondashuvni ta'minlash hamda korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarni samarali qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu toifadagi o'quvchilarda bilish jarayonlarining (idrok, xotira, tafakkur, diqqat) sust rivojlanganligi, nutqiy cheklanishlar, ixtiyoriy faoliyatning past darajasi hamda o'quv motivatsiyasining zaifligi ta'lim jarayonini tashkil etishda alohida yondashuvlarni talab etadi.

Aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyatidagi o'ziga xosliklar matematik tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Matematika fani mantiqiy fikrlash, tahlil, umumlashtirish va abstrakt tasavvurlarni talab qilishi bilan ajralib turadi. Shu sababli ushbu fan mazmunini o'zlashtirish aqli zaif o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi. Mazkur holat ularni o'qitishda an'anaviy yondashuvlar yetarli

samara bermasligini ko'rsatadi va maxsus pedagogik texnologiyalarga ehtiyojni kuchaytiradi.

Korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalar esa aynan shunday ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan bo'lib, ular o'quvchilarning kognitiv jarayonlarini faollashtirish, bilish imkoniyatlarini kengaytirish hamda o'quv materialini o'zlashtirishni yengillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar tarkibiga ko'rgazmali vositalardan foydalanish, didaktik o'yinlar, interfaol metodlar, bosqichma-bosqich o'rgatish, takrorlash va amaliy faoliyatni kuchaytirish kabi yondashuvlar kiradi.

Ilmiy manbalarda, jumladan L.S. Vygotskiy, A.R. Luriya kabi olimlarning tadqiqotlarida aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishda ijtimoiy muhit va maxsus pedagogik yordamning o'rni alohida ta'kidlanadi. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi bunday o'quvchilar bilan ishlashda korreksion yondashuvning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy maxsus pedagogika sohasidagi tadqiqotlar ta'lim jarayonida interfaol va individual yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Shu nuqtai nazardan, aqli zaif o'quvchilarga matematika o'qitish jarayonida korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarni qo'llash nafaqat ularning o'quv faoliyatini yaxshilashga, balki ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, o'quv motivatsiyasini oshirish hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Aqli zaif o'quvchilarga ta'lim berish, ularning kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda maxsus pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish masalasi defektologiya va maxsus pedagogika fanida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biridir. Ilmiy adabiyotlarda ushbu toifadagi o'quvchilarning psixologik-pedagogik xususiyatlari, ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillari hamda korreksion yondashuvlarning samaradorligi turli mualliflar tomonidan tahlil qilingan.

Jumladan, P.Po'latova o'z tadqiqotlarida oligofrenopedagogikaning nazariy asoslarini yoritib, aqli zaif bolalarni o'qitishda korreksion ta'limning asosiy tamoyillari sifatida individuallashtirish, tizimlilik va ko'rgazmalilikni alohida ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, maxsus ta'lim jarayonida har bir o'quvchining psixik rivojlanish darajasini hisobga olish samarali natija beradi [1, 45-b].

V.S.Raxmanova defektologiya asoslariga bag'ishlangan ishlarida aqli zaif o'quvchilarning bilish jarayonlaridagi o'ziga xosliklarni tahlil qilib, ularning tafakkur operatsiyalari sust rivojlanganligi sababli o'qitish jarayonida bosqichma-bosqich va amaliy yondashuv muhimligini qayd etadi [2, 38-b]. Ushbu yondashuv matematika kabi abstrakt fanlarni o'zlashtirishda alohida ahamiyatga ega.

G'.Shoumarov va K.Mamedov tomonidan olib borilgan psixologik tadqiqotlarda aqli zaif o'quvchilarning xotira va diqqat jarayonlari xususiyatlari o'rganilib, ularda mexanik

yodlash ustunligi va diqqatning beqarorligi ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan [3, 52-b]. Bu esa korreksion texnologiyalarni qo'llash zaruratini yanada kuchaytiradi.

D.Nurkeldiyeva maxsus ta'lim tizimidagi muammolarni tahlil qilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning ijtimoiy va akademik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash mumkinligini ta'kidlaydi. Muallif interfaol metodlarning samaradorligini amaliy misollar asosida asoslab beradi [4, 61-b].

Chet el olimlaridan L.S.Vygotskiy o'zining defektologiyaga oid fundamental ishlarida "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasini ilgari surib, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning imkoniyatlari to'g'ri pedagogik yordam orqali kengaytirilishini asoslab bergan [5, 87-b]. Ushbu nazariya bugungi kunda korreksion-rivojlantiruvchi ta'limning metodologik asosi sifatida xizmat qiladi.

A.R.Luriya esa yuqori kortikal funksiyalarni o'rganish jarayonida bilish faoliyatining miya tuzilmalari bilan bog'liqligini ko'rsatib, aqli zaif bolalarda kognitiv jarayonlarning buzilishi o'qitish strategiyasini maxsuslashtirishni talab etishini qayd etadi [6, 112-b].

V.I. Lubovskiy va V.G.Petrova tadqiqotlarida aqli zaif bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlari batafsil yoritilib, ularni o'qitishda ko'rgazmali-amaliy metodlar va takrorlash tizimi muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi [7, 74-b; 8, 66-b].

M.N.Perova maxsus maktablarda matematika o'qitish metodikasini ishlab chiqib, o'quv materialini sodda, bosqichli va amaliy faoliyat bilan bog'liq holda berish samarali ekanligini ko'rsatadi [9, 59-b].

N.M.Nazarova esa maxsus pedagogika tizimini tahlil qilib, inklyuziv va korreksion ta'lim integratsiyasining ahamiyatini asoslaydi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi [10, 41-b].

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, aqli zaif o'quvchilarga matematika o'qitishda korreksion-rivojlantiruvchi yondashuvlar ularning bilish faoliyatini faollashtirish, o'quv motivatsiyasini oshirish va ta'lim samaradorligini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar ushbu yo'nalishda interfaol metodlar va individual yondashuvni yanada rivojlantirish zarurligini ham ko'rsatmoqda.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotda aqli zaif o'quvchilarga matematika o'qitishda korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy usullar uyg'unligiga asoslandi. Nazariy bosqichda maxsus pedagogika, defektologiya va psixologiya sohalariga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, aqli zaif o'quvchilarning kognitiv rivojlanish xususiyatlari hamda ularni o'qitishning samarali metodlari umumlashtirildi. Ushbu bosqich tadqiqotning konseptual asoslarini shakllantirishga xizmat qildi.

Empirik bosqichda pedagogik kuzatish, suhbat va tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqot maxsus ta'lim muassasasida tashkil etilib, o'quvchilar ikki guruhga — nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida matematika darslari korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalar asosida (interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, ko'rgazmali vositalar va amaliy mashqlar orqali) olib borildi, nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish usullari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning matematik bilim darajasi, diqqat va xotira ko'rsatkichlari hamda mustaqil ishlash ko'nikmalari dastlabki va yakuniy bosqichlarda diagnostika qilindi. Olingan natijalar statistik tahlil qilinib, sifat va miqdor jihatdan solishtirildi.

Metodologik yondashuvning asosini individuallashtirish, tizimlilik, izchillik va amaliy yo'naltirilganlik tamoyillari tashkil etdi. Shu asosda tadqiqot natijalarining ishonchliligi va amaliy ahamiyati ta'minlandi.

**Natija.** Aqli zaif o'quvchilarning rivojlanishida markaziy asab tizimining organik shikastlanishi asosiy omil hisoblanadi. Bu esa ularning barcha kognitiv jarayonlariga — idrok, xotira, tafakkur, diqqat va nutq faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday o'quvchilarda tafakkur operatsiyalari (tahlil, sintez, umumlashtirish, taqqoslash) yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Ularning idroki fragmentar xarakterga ega bo'lib, predmet va hodisalarning muhim belgilarini ajratib olishda qiyinchilik yuzaga keladi. Xotira jarayonida esa asosan mexanik yodlash ustunlik qiladi, mantiqiy bog'lanishlar orqali eslab qolish sust rivojlangan bo'ladi. Diqqatning barqaror emasligi, tez chalg'ishi va faoliyatni uzoq davom ettira olmaslik holatlari ham tez-tez uchraydi. Shuningdek, aqli zaif o'quvchilarda hissiy-ixtiyoriy soha ham o'ziga xos xususiyatlarga ega: motivatsiyaning pastligi, tez charchash, tashabbusning yetishmasligi kuzatiladi. Bu esa ta'lim jarayonida maxsus yondashuvni talab etadi. Zamonaviy ta'lim tizimida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarni o'qitish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Aqli zaif o'quvchilarga matematika o'qitish jarayoni ularning psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, maxsus metod va texnologiyalarni qo'llashni talab etadi.

Tajriba maxsus ta'lim muassasasida olib borilib, o'quvchilarning matematik bilim darajasi sinovdan o'tkazildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki korreksion texnologiyalar qo'llanilgan sinflarda o'quvchilarning matematik bilimlari sezilarli darajada oshdi, o'quvchilarning diqqat va xotira ko'rsatkichlari yaxshilandi, mustaqil ishlash ko'nikmalari shakllandi, matematik tushunchalarni amaliy qo'llash darajasi oshdi. Interfaol metodlar va didaktik o'yinlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytirdi. Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, an'anaviy o'qitish metodlariga nisbatan korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalar samaraliroq hisoblanadi.

Aqli zaif o'quvchilar uchun: ko'rgazmalilik, amaliy faoliyat, takrorlash, individual yondashuv, asosiy didaktik shartlar hisoblanadi. Shuningdek, o'yin texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning psixologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va o'quv

jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Aqli zaif o'quvchilarga matematika o'qitishda korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarni qo'llash ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning kognitiv rivojlanishini ta'minlab, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida mazkur yo'nalishda innovatsion metodlarni yanada keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar aqli zaif o'quvchilarga matematika o'qitishda korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarning yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Tajriba va nazorat guruhleri o'rtasidagi dastlabki diagnostika natijalari deyarli bir xil darajada bo'lgan bo'lsa, tajriba yakunida sezilarli farqlar kuzatildi.

Tajriba guruhida matematika darslarining korreksion-rivojlantiruvchi yondashuv asosida tashkil etilishi o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, o'quvchilar matematik amallarni bajarishda aniqroq va ishonchliroq harakat qila boshladilar, sodda masalalarni mustaqil yechish ko'nikmalari shakllandi. Ko'rgazmali vositalar va amaliy mashg'ulotlar yordamida berilgan tushunchalar esa uzoq muddatli xotirada mustahkamroq saqlanganligi aniqlandi.

Shuningdek, o'quvchilarning kognitiv jarayonlarida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Diqqatning barqarorligi oshdi, topshiriqlarga e'tibor qaratish muddati uzaydi, xotira ko'rsatkichlarida esa mantiqiy bog'lanishlar orqali eslab qolish darajasi yaxshilandi. Bu esa o'quv materialini o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Tajriba jarayonida qo'llanilgan interfaol metodlar va didaktik o'yinlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada kuchaytirdi. O'quvchilar faol ishtirok eta boshladilar, savol-javoblarda qatnashish, guruh bilan ishlash va mustaqil fikr bildirishga intilish holatlari ko'paydi. Bu esa ularning o'quv motivatsiyasining oshganligini ko'rsatadi.

Nazorat guruhida esa an'anaviy metodlar asosida olib borilgan darslarda bunday sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi. O'quvchilarning bilim darajasidagi o'sish nisbatan past bo'lib, kognitiv faollik va mustaqil ishlash ko'nikmalarida katta siljishlar qayd etilmadi.

Tadqiqot natijalari korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarni qo'llash aqli zaif o'quvchilarning matematik bilimlarini oshirish, bilish jarayonlarini rivojlantirish va o'quv faoliyatini faollashtirishda muhim pedagogik vosita ekanligini tasdiqladi.

**Muhokama.** Mazkur tadqiqot natijalari aqli zaif o'quvchilarga matematika o'qitishda korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarning samaradorligini yana bir bor tasdiqladi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu yondashuv nafaqat bilimlarni o'zlashtirish darajasiga, balki o'quvchilarning umumiy kognitiv rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat maxsus pedagogika nazariyasida ilgari surilgan fikrlar bilan uyg'unlashadi, ya'ni ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki rivojlantiruvchi va korreksion vazifani ham bajarishi lozim.

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, an'anaviy o'qitish metodlari aqli zaif o'quvchilarning psixologik xususiyatlariga to'liq mos kelmaydi. Ular

ko'proq abstrakt tushunchalarga asoslangan bo'lib, bu esa mazkur toifadagi o'quvchilarda qiyinchilik tug'diradi. Korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalar esa, aksincha, ko'rgazmali-amaliy faoliyatga, takrorlashga va bosqichma-bosqich o'rgatishga asoslanganligi sababli o'quv materialini tushunishni osonlashtiradi. Shu jihatdan qaraganda, matematika fanini o'qitishda mazkur texnologiyalarni qo'llash metodik jihatdan asoslangan va zarur hisoblanadi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim omil sifatida interfaol metodlarning roli alohida e'tiborga loyiq. Didaktik o'yinlar, guruhli ishlar va muloqotga asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilarning faolligini oshirib, ularni o'quv jarayonining faol subyektiga aylantiradi. Bu esa o'z navbatida bilimlarni ongli o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'yin elementlarining mavjudligi o'quvchilarning hissiy holatini barqarorlashtiradi, dars jarayonidagi zo'riqishni kamaytiradi va ijobiy psixologik muhitni yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Mustaqillik darajasining oshishi esa keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qish va ijtimoiy moslashuv uchun zarur omillardan biridir. Ayniqsa, matematik topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarish orqali o'quvchilarda mantiqiy fikrlash elementlari shakllana boshlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim cheklovlar ham kuzatildi. Jumladan, har bir o'quvchining individual rivojlanish darajasi turlicha bo'lgani sababli, bir xil metodlar hamma uchun bir xil natija bermasligi mumkin. Bu esa ta'lim jarayonida yanada chuqur individuallashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, korreksion texnologiyalarni samarali qo'llash o'qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik va ijodkorlikni talab etadi.

Yuqorida bayon etilgan natijalar va ularning muhokamasiga tayanib, aqli zaif o'quvchilarga matematika o'qitish jarayonida qo'llanilgan korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarning mazmuni va ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirini tizimli ravishda ko'rsatish zarurati yuzaga keladi. Chunki mazkur texnologiyalar faqat natijalar orqali emas, balki o'quv jarayonida qanday vosita va metodlar orqali amalga oshirilgani bilan ham ahamiyatlidir. Shu bois quyidagi jadvalda asosiy texnologiyalar, ularning mazmuni va o'quvchilarga ko'rsatgan ta'siri umumlashtirildi.

***Korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalar va ularning samaradorligi***

№	Texnologiya turi	Mazmuni	Qo'llash shakli	Natijaga ta'siri
1	Ko'rgazmali o'qitish texnologiyasi	Predmetlar, rasmlar, sxemalar orqali tushuntirish	Kartochkalar, vizual materiallar	Tushunishni osonlashtirdi, idrokni rivojlantirdi
2	Didaktik o'yin texnologiyasi	O'yin orqali bilim berish	Matematik o'yinlar, rolli mashg'ulotlar	Qiziqishni oshirdi, motivatsiyani kuchaytirdi
3	Interfaol metodlar	Faol ishtirokga asoslangan o'qitish	Savol-javob, guruhli ishlar	Faollikni oshirdi, muloqotni rivojlantirdi
4	Amaliy faoliyatga	Harakat va tajriba	Amaliy mashqlar,	Mustahkam bilim hosil

	asoslangan yondashuv	orqali o'rgatish	predmet bilan ishlash	qildi, ko'nikmalarni rivojlantirdi
5	Takrorlash va mustahkamlash texnologiyasi	O'rganilganlarni qayta ishlash	Mashq va takroriy topshiriqlar	Xotirani kuchaytirdi, bilimni barqarorlashtirdi
6	Individual yondashuv	Har bir o'quvchiga mos topshiriqlar berish	Differensial topshiriqlar	O'zlashtirish darajasini oshirdi

Keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalar o'zaro uzviy bog'liq holda qo'llanilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Ayniqsa, ko'rgazmali va amaliy faoliyatga asoslangan yondashuvlar aqli zaif o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlariga mos kelib, matematik tushunchalarni o'zlashtirishni sezilarli darajada yengillashtiradi.

Didaktik o'yinlar va interfaol metodlar esa o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularni faol ishtirok etishga undaydi. Bu esa ta'lim jarayonini jonlantirib, bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishga xizmat qiladi. Takrorlash va individual yondashuv texnologiyalari esa olingan bilimlarni mustahkamlash va har bir o'quvchining imkoniyatidan kelib chiqib rivojlanishini ta'minlaydi.

Mazkur texnologiyalarni kompleks va tizimli qo'llash aqli zaif o'quvchilarga matematika o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi hamda ularning kognitiv va amaliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Xulosa.** Aqli zaif o'quvchilarga matematika o'qitish jarayoni o'ziga xos pedagogik yondashuvni talab etadigan murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Ushbu toifadagi o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlari, bilish jarayonlarining sustligi hamda o'quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyaning pastligi an'anaviy o'qitish usullarining yetarli darajada samarali bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Shu bois ta'lim jarayonini tashkil etishda korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish muhim pedagogik zarurat sifatida namoyon bo'ladi.

Korreksion-rivojlantiruvchi yondashuvlar matematika ta'limining mazmunini o'quvchilarning imkoniyatlariga moslashtirish, murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli shaklda yetkazish hamda o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich tashkil etishga xizmat qiladi. Ko'rgazmalilik, amaliy faoliyat, takrorlash va individuallashtirish kabi didaktik tamoyillarning uyg'unligi o'quvchilarning matematik bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi va ularning kognitiv faolligini oshiradi.

Interfaol metodlar va didaktik o'yin texnologiyalarining qo'llanishi esa o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytirib, ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi. Bu holat o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, bunday yondashuvlar orqali o'quvchilarda amaliy ko'nikmalar shakllanib, kundalik hayotda matematik bilimlardan foydalanish imkoniyatlari kengayadi.

Korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarning tizimli qo'llanishi nafaqat matematik tayyorgarlikni yaxshilaydi, balki o'quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur kabi asosiy bilish jarayonlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuviga, mustaqil hayotga tayyorlanishiga va jamiyatda o'z o'rnini topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, bunday texnologiyalarni samarali qo'llash o'qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya, metodik tayyorgarlik va ijodiy yondashuvni talab etadi. Ta'lim jarayonini individuallashtirish, har bir o'quvchining imkoniyatini chuqur tahlil qilish va unga mos metodlarni tanlash muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Kelgusida mazkur yo'nalishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni yanada takomillashtirish, amaliyotga keng joriy etish hamda o'qituvchilarning malakasini oshirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi. Shu asosda aqli zaif o'quvchilarga matematika o'qitish jarayonini yanada samarali tashkil etish, ularning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Po'latova P. Maxsus pedagogika (oligofrenopedagogika). – Toshkent, 2007. – 256 b.
2. Raxmanova V.S. Defektologiya asoslari. – Toshkent, 2012. – 240 b.
3. Shoumarov G'., Mamedov K. Psixologik xususiyatlar va diagnostika. – Toshkent, 1987. – 180 b.
4. Nurkeldiyeva D. Maxsus ta'lim muammolari. – Toshkent, 2013. – 220 b.
5. Vygotsky L.S. Foundations of Defectology. – Moscow, 1984. – 320 p.
6. Luria A.R. Higher Cortical Functions in Man. – Moscow, 2000. – 512 p.
7. Lubovsky V.I. Developmental Disorders. – Moscow, 1994. – 280 p.
8. Petrova V.G. Psychology of Mentally Retarded Children. – Moscow, 2004. – 256 p.
9. Perova M.N. Teaching Mathematics in Special Schools. – Moscow, 2001. – 200 p.
10. Nazarova N.M. Special Pedagogy. – Moscow, 2008. – 352 p.